

Bu kuzdagi ommabop yoʻnalishlarga chegirmalar

2025 19 September

20-sentabrdan 30-sentabrgacha HYWHFRTM promokodidan foydalaning va iqtisodiy hamda biznes-klass xizmat koʻrsatish chiptalariga tarifdan 15% gacha chegirmaga ega boʻling. Aksiya koʻrsatilgan davrda amalga oshiriladigan quyidagi aviaqatnovlar uchun amal qiladi:

□Toshkent – Olmaota – Toshkent: 1-12 oktabr

□Toshkent – Qarshi – Toshkent: 20-30 sentabr

□Toshkent – Tbilisi – Toshkent: 1-30 oktabr

□Toshkent – Sankt-Peterburg: 1-30 oktabr

□Toshkent – Astana: 1-12 oktabr

□Samarqand – Sankt-Peterburg: 20 sentabr – 10 oktabr

Promokod orqali chiptalarni faqat booking.uzairways.com saytida yoki mobil ilovada xarid qilish mumkin. Chegirma faqat tarifga qoʻllaniladi; soliqlar va yigʻimlar alohida toʻlanadi.

Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Promokodni qoʻllagan holda sotish faqat aviakompaniya veb-saytida va mobil ilovasida amalga oshirilishi mumkin;
2. Promokodlarni boshqa chegirmalar, boshqa promokodlarning chegirmalari bilan birlashtirish taqiqlanadi, bolalar chegirmasi bundan mustasno;
3. Qaytarish/qayta bronlash shartlari:

- qaytarilgan/qayta bron qilingan/qayta rasmiylashtirilgan taqdirda, promokod bo'yicha tarifga taqdim etilgan chegirma qaytarish/qayta rasmiylashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'implarga nisbatan qo'llanilmaydi, bolalar uchun – belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
- qisman foydalanilgan aviachiptani qaytarish summasini hisoblash uchun taqdim etilgan chegirma qo'llanilmagan holda foydalanilgan uchastka (bir tomon) uchun tarif chegirib tashlanadi;
- Promo-kod bo'yicha chegirma bilan to'liq foydalanilmagan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, chegirmalarsiz tarifning to'liq darajasiga qo'shish zarur. To'plangan ballar uchun xizmat ko'rsatish sinfini Z sinfgacha oshirish, Change Name Policy yo'lovchining ismi, familiyasi va pasport ma'lumotlariga o'zgartirishlar kiritish texnologiyasi doirasida aviachiptalarni qayta qayta rasmiylashtirishda bundan mustasno
- promokod taqdim etilmagan kunlarda rasmiylashtirilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, promokod bo'yicha chegirma qo'llanilmaydi;
- qisman foydalanilgan, chegirma bilan rasmiylashtirilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob to'liq tarifga qo'shilgan holda amalga oshiriladi.

4. Aviatashuvlar davri – cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo'llaniladigan tarif qoidalar bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan jadvalga muvofiq rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);

5. HY marketing tashuvchisi bo'lgan CodeShare aviaqatnovlari va tijorat shartnomalari (SPA) doirasida e'lon qilingan tariflar, shuningdek, "Uzbekistan Helicopters" MCHJ (HY1001-1100) va "Silk Avia" aviaqatnovlari, shuningdek, guruhli bron qilish uchun qo'llanilmaydi.

Uzbekistan Airways O'zbekistondagi eng yirik aviakompaniya hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyati maqomiga ega. Uning aviaparkida Boeing 767/787, Airbus A320ceo/320neo/321neo, L-410, ATR-72 kabi havo kemalar mavjud.

Yo'nalishlar tarmog'i va havo kemalar parkini doimiy ravishda kengaytirmoqda hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilaydi. Parvoz xavfsizligi esa aviakompaniya uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

Uzbekistan Airways muntazam, charter va yuk tashuvchi aviatnovlarini hamda Uzbekistan Airways Express lowkoster tizimi bo'yicha ham parvozlarni amalga oshiradi.

Uzbekistan Airways tarkibiga "Uzbekistan Helicopters" MChJ, "Uzbekistan Airways Technics" MChJ, "Catering" MChJ, "O'quv-mashq markazi" MChJ kabi kompaniyalar ham kiradi.